



## BO'LAJAK TARBIYACHILARNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH TA'LIM MUAMMOSI SIFATIDA

*Kenjayeva F.Sh.*

*magistrant,*

*Toshkent shahridagi Puchon Universiteti Ta'lim menejmenti fakulteti*

**Tayanch so'zlar:** psixologiya, pedagogika, ta'lim tizmi, muammo, pedagogik mahorat, rivojlantirish.

**Ключевые слова:** психология, педагогика, система образования, проблема, педагогическое мастерство, развитие.

**Key words:** psychology, competence, educational system, pedagogical skill, development.

**Резюме:** Mazkur maqolada bo'lajak tarbiyachilarimizning pedagogik va psixologik qobiliyatlarining amaliyotdagi holati o'rganiladi va tahlil qilinadi. Pedagogik qobiliyatlar va psixologik qobiliyatlar ikkita muhim qismlarga ajratiladi va yaqindan o'rganib chiqiladi. Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik va psixologik qobiliyatlari shakllantirilmagan holatdagi muammolar bilan tanishiladi. Shu bilan birga ushbu qobiliyatlarni shakllantirish pedagogik va psixologik muammo sifatida o'rganiladi.

**Резюме:** В данной статье изучается и анализируется практическое положение педагогического и психологического мастерства наших будущих педагогов. Педагогические навыки и психологические навыки разделены на две важные части и тщательно изучаются. Педагогические и психологические умения будущих педагогов будут знакомиться с проблемами, в решении которых они еще не сформированы. При этом формирование этих способностей изучается как педагогико-психологическая проблема.

**Summary:** In this article, the practical situation of the pedagogical and psychological skills of our future educators is studied and analyzed. Pedagogical skills and psychological skills are divided into two important parts and closely studied. Pedagogical and psychological skills of future educators will be introduced to the problems in which they are not formed. At the same time, the formation of these abilities is studied as a pedagogical and psychological problem.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar o'tkazilmoqda, ularning barchasi bolalar va pedagoglar manfaatlarini yo'lida xizmat qilishga, shuningdek, maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan. Shu bilan bir qatorda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga oliy ta'lim muassasalarini bitirgandan keyin birinchi kundanoq to'laqonli ishlay oladigan yuqori malakali



mutaxassislar kerak. Bunday mutaxassislarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ish beruvchilar ishtirokisiz tayyorlashning iloji yo'q. Shu sababli, ko'pchilik oliy ta'lim muassasalari bo'lajak tarbiyachilarni to'laqonli tayyor holatda ya'ni ham pedagogik ham psixologik tomonlardan shakllangan holatda tayyorlashni maqsad qilmoqdalar. 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmonlari, 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda pedagogik kadrlarning qobiliyatligi muhim ahamiyat kasb etadi. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Misol qilib aytadigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'limi yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish kvotalari oshirildi, mazkur yo'nalishda o'qish muddati uch yilgacha qisqartirildi va 2024-yil 1 iyundan oliy ma'lumotli bog'cha tarbiyachilarining maoshi oshiriladi.

Ishchi hodimlarning oylik maoshlarining oshirilishi ham ularga bir motivdek ta'sir ko'ratadi albatta.

Bo'lajak tarbiyachi qachonki o'z sohasini ish boshlaganda emas balki, u aynan tarbiyachilik ma'suliyatini talabalik chog'idayoq his qilishi kerak va ular maktabgacha ta'lim muassasalariga tayyor yetuk kadr bo'lib borishlari zarurdir. Bundan tashqari tarbiyachilik sohasida o'z ish faoliyatini olib borayotgan kadrlar malakasini oshirish hamda ularning bir birlari bilan tajriba, malaka almashinuvini taminlash tarbiyachilar kasbiy komponentligini oshirishdagi asosiy faoliyatlar hisoblanadi.

O'qituvchi va tarbiyachilar shaxsining shakllaninishida quyidagi sifatlar muhim ahamiyatlidir:

1. O'z o'zini baholash	5. Aloqa
2. Pedagogik ta'lim	6. Innovatsiya



3. Psixologik qobiliyat	7. Yetakchilik
4. Moslashuvchanlik	8. Uzluksiz o'rganish

**Pedagogik qobiliyat** – bu qobiliyat turlaridan biri bo‘lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana olishini aniqlab beradi. Pedagogik psixologiyada o‘qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o‘rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib borilgan. Pedagogik qobiliyat ham o‘z navbatida bir qancha turlarga bo‘linadi. Dunyo olimlari pedagogik qobiliyatni o‘zlarining nazariyalariga asoslanib, turlicha guruhlariga ajratib chiqishgan. Masalan: **F.N.Gonobolin** pedagogik qobiliyatni quyidagi turlarga ajratishni taklif qilgan:

1. Didaktik qobiliyatlar
2. Akademik qobiliyatlar
3. Pertseptiv qobiliyatlar
4. Kommunikativ qobiliyatlar
5. Tashkilotchilik qobiliyati
6. Avtoritat qobiliyatlar
7. Kommunikativ qobiliyatlar
8. Pedagogik xayolot
9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati

**T.I.Gavakov** esa quyidagicha ifodalagan;

- oluvchilarni his eta olish qobiliyati
- kishilar bilan samimiy muloqot olib borish, muloqotchanlik
- kasbiy yetuklik
- ko‘rsatish va mantiqiy ishontirish qobiliyati
- o‘zini boshqara olish qobiliyati
- ijodiy ishga qobiliyatlilik

**Psixologik qobiliyatlar** – bu muayyan harakatlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun shaxsga ega bo‘lgan ma'lum fazilatlar to‘plami. Muxtasar qilib aytganda, bu fazilatlar shaxsning yangi faoliyatni qanchalik oson o‘rganishini va u hayotda nima qilishini aniqlaydi.

Qobiliyatlar ma'lum shartlar – moyilliklar yordamida namoyon bo‘ladi va rivojlanadi. Moyilliklar ma'lum bir tabiiy asos, psixofiziologik xususiyatlar deb ataladi, unga ko‘nikmalarning shakllanishi va rivojlanishining xususiyatlari bog‘liqdir. Shuningdek, moyillik asosida insonning qobiliyatlari rivojlanadi, masalan, ma'lumotni eslab qolish qobiliyati, temperamental xususiyatlar, psixomotor qobiliyatlar va boshqalar. Masalan, musiqa o‘tkir quloqqa moyil



bo'lgan odam zo'r musiqachi bo'lishi mumkin, ranglarni ko'rsatishga moyil bo'lgan kishi esa rassom bo'lishi mumkin.

Muhimi shuni ta'kidlash kerakki, qobiliyatlarning o'zi hech qanday faoliyatda muvaffaqiyatni ta'minlamaydi. Ular moyilliklar, ma'lum ko'nikmalar, qobiliyatlari va bilimlar bilan "qo'shilishi" kerak. Shuningdek, ijtimoiy o'zaro ta'sir omillari va boshqa holatlar.

Oliy ta'lim muassasasida bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik va psixologik qobiliyatlarini shakllantirish pedagogik va psixologik muammo sifatida oladigan bo'lsak: yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosidagi pedagogika oliy ta'lim muassasalarining har bir talabasi pedagogik-psixologik bilimlarni mukammal darajada egallashini ta'minlash zarur.

So'nggi yillarda rivojlanayotgan iqtisodiyot va erkin mehnat bozorining barcha talablariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash o'qituvchilardan **mukammal pedagogik va psixologik** qobiliyatni talab etadi.

Mamlakatimiz va dunyoning rivojlangan davlatlarida faoliyat olib borayotgan olim-pedagoglar pedagogik va psixologik qobiliyatlarni shakllantirish yo'nalishini rivojlantirishga alohida muammo sifatida jiddiy e'tibor qaratmoqda:

- o'rganishda kasbiy va shaxsiy jihatdan o'z mavqeini o'z-o'zini belgilash
- o'z-o'zini tarbiyalash;
- o'z-o'zini takomillashtirish;
- o'z-o'zini rivojlantirish;
- o'z-o'zini anglashning mohiyati va ahamiyatiga "mukammal darajadagi mutaxassis, mahoratli mutaxassis sifatida e'tibor qaratiladi.

Ta'lim jarayoni sifatini ta'minlashda, xususan, o'quvchining erkin fikrlash faoliyatini yo'lga qo'yish quyidagi pedagogik-psixologik asoslarni belgilaydi:

1. O'quv materiallaridagi hodisalarni o'quvchilar tomonidan idrok etish jarayoni. Bu jarayonda konkret talqinlar o'z aksini topadi va o'quvchi mavjud vaziyatlarni idrok eta boshlaydi, ya'ni tushuna boshlaydi. Bu ta'lim jarayonida o'quvchining erkin fikrlashining birinchi negizini izohlaydi.

2. O'quvchining hozirgi holatiga asoslangan tasavvur. Bunda o'quvchi o'z qo'lidagi ma'lumotlarga, mavjud ma'lumotlarga tayangan holda har qanday jihatning hozirgi holati orqali ham o'tmish, ham kelajak holati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi.

3. Jarayonni kuzatish uning keyingi harakatlari uchun yana bir asosdir. U o'z oldiga aniq maqsad qo'yish uchun har qanday butun ob'ektni qismlarga ajratish yoki narsalarni taqqoslashni o'rganadi. Bu uning ishiga ta'sirini ko'rsatadi.



Binobarin, o'quvchining erkin fikrlashida, uning mushohada bilan kuzatishi rivojlanadi.

4. Erkin tafakkurning yana bir pedagogik-psixologik asosi nimanidir tushunishdir. Tushunish orqali o'quvchi odamlar o'rtasidagi atrofmuhit va jamiyatdagi o'zaro bog'liqlikni, bog'liqlikni tushunadi. U shunchaki fikrlashdan chekinadi va ichki, tashqi aloqalarni, sababoqibat munosabatlarini har tomonlama oydinlashtirish imkoniyatini qidiradi.

5. Xulosa – bu o'quvchining erkin fikrlashi bo'yicha ma'lum bir xulosaga kelish jarayonidir. Xususan, talaba axborotni tushunishi natijasida xulosa chiqarishga harakat qiladi. Har qanday xulosa asoslashni talab qiladi. Talaba xulosalar chiqarishning pedagogik, psixologik asosi sifatida talqin qilinadi.

6. Tanqidiy fikrlash uchun zarur bo'lgan o'quv materiallarini yodlash jarayoni. Har qanday vaziyatda erkin fikrlashning bu jihati bilan solishtirish tahlil qilish uchun asos yaratadi. Bu o'z navbatida o'quvchining psixologik ta'siri uchun zarur imkoniyatdir.

7. O'quvchini erkin fikrlashga yo'naltirishning yana bir jihati o'quvchini qiziqitira bilishdir. Talaba qiziquvchanlik asosida erkin fikrlashga harakat qiladi, izlaydi, biror narsaga erishishga intiladi.

O'qitish va ijtimoiy hayot jarayonida o'quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirish, o'z salohiyatini yuzaga chiqarishga qiziqishini oshirish tarbiyada alohida o'rin tutadi. Shu bois O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq talabalarga erkinlik berish, ularning mustaqil faoliyat yuritishi uchun imkoniyat yaratish dolzarb masala sifatida e'tirof etildi. Zero, erkin fikrlash barkamol avlodni shakllantirishning muhim omilidir. Bajarilgan ishlarni tasniflash, tahlil qilish va mazmunini to'ldirish uchun quyidagilarni jamlash zarur bo'ladi:

- o'quvchilarning o'quv jarayoniga ongli munosabatini rivojlantirish;
- talabalarda nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- o'quvchilarning iqtidori, qobiliyati va iste'dodini aniqlash va ularni rivojlantirishga yo'naltira olish;
- iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotdagi o'zgarishlar haqidagi qarashlarni tizimlashtirish;
- jamiyatdagi tadbirlarda ishtirok etish mas'uliyatini oshirish.

**Davr yangilikni taqozo etadi.** Endi o'quvchi kitobda yozilganlarni emas, balki o'z fikrini, tadqiqoti mahsulini ko'rsatishi, ta'lim jarayoni imkoniyatlaridan unumli foydalana olishi kerak. Ularni to'g'ri va ravon ifodalash qobiliyatini namoyon etishi zarurdir.



Tarbiyachida bunday ko`nikma va malakalar uning darsda uzluksiz mustaqil izlanishlari asosidagina shakllanishi va rivojlanishi mumkin. Ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchilarning bilish faoliyati quyidagicha tuzilgan:

- 1) kuzatish;
- 2) tadqiqot;
- 3) farqlarni talqin qilish;
- 4) taqqoslash;
- 5) umumiylikni talqin qilish;
- 6) farqlarni talqin qilish;
- 7) tasnifi;
- 8) hukm;
- 9) muvofiqlikni aniqlash;
- 10) ariza.

Barchamizga ma'lumki, bu ikki sohani faylasuflarimiz o'z tadqiqotlarida azaldan birgalikda izohlab kelishgan: rus pedagogi va psixologi K.D.Ushinskiy "Psixologiya pedagogika uchun barcha fanlardan eng muhimi. Insonni har tomonlama tarbiyalash uchun uni har tomonlama o'rganish kerak" degan fikrni keltirgan. Bu haqiqatni o'quvchilarimiz ongiga singdirishimiz va bu bilimlarni mantiqiy xotira va tafakkurga asoslangan holda o'rganishga yordam berishimiz kerak. Inson haqiqatan ham biror narsaga muhtojligini bilsa, unga erishishga intiladi. Bu jarayon, masalan, bog'cha tarbiyalanuvchilarida sodir bo'ladi, lekin bog'cha tarbiyalanuvchilari o'sha paytdagi vaziyatlarni tushunishlari uchun uning dunyoqarashi qisman torayishi mumkin.

Dunyoning barcha jabhalarida sivilizatsiya jarayoni jadal rivojlanmoqda. Agar bir soha rivojlanishdan orqada qolsa, u boshqa yod oqimi yoki g'oya bilan almashtirilishi mumkin. Demak, bugungi jadal taraqqiyot davrida biz ham yurtimiz taraqqiyotiga, yuksak marralarni zabt etishga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. O'quvchilarda pedagogik-psixologik bilimlarimizni shakllantirishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, ularni faoliyatimizga tatbiq etish, bu borada yangiliklar yaratish dolzarb masalalardan biridir. Zamonamiz taraqqiy etar ekan, ta'lim ham orqada qolmasligi kerak. Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg o'qituvchining doimiy ravishda fanlarni o'qishi haqida shunday fikr bildirgan: "O'qituvchi fanni muntazam o'rganishi, o'z ustida ishlashi kerak. Aks holda, u qurigan daraxt yoki toshga o'xshaydi. Qurigan daraxt yoki tosh meva bermaganidek, kelajakda hech bir ustoz meva bera olmaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ta'limimizning ayrim sohalarida ham shunday kamchiliklarga duch kelishimiz mumkin. Bu kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf



etish maqsadga muvofiq bo'lardi va yangi milliyligimizga mos ravishda innovatsion texnologiyalar va usullarni joriy etish. Bugungi kun talabiga ko'ra, har bir pedagog pedagogik va psixologik jihatdan to'liq shakllangan bo'lib, o'zi mustaqil ravishda o'qitish usulini tanlashi va shu asosda jamiyat yoshlarini tarbiyalashi lozim.

#### ADABIYOTLAR:

1. 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida".
2. 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida".
3. 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari.
4. 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"
6. Kun.uz 30-yanvar 2024
7. Гоноболин, Ф. Н. Книга об учителе / Ф. Н. Гоноболин. - М. : Просвещение, 1965. - 260 с.
8. В.Х.Ходжайев .Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti pedagogika ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik/ 328 bet.
9. Butunjahon sog'liqni saqlash byulleteni (WBPH)Zamonaviy pedagogikada o'qituvchining psixologik mahoratlari 16-jild, 2022 yil noyabr .
10. Ta'lim fanlari bo'yicha Evropa tadqiqot va mulohaza jurnali jild. 7-son 12, 2019 yil Progressive Academic Publishing, Buyuk Britaniya ISSN 2056-5852.
11. Ta'lim fanlari bo'yicha Evropa tadqiqot va mulohaza jurnali jild. 7-son 12, 2019 yil Progressive Academic Publishing, Buyuk Britaniya ISSN 2056-5852.